



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 26-iyul

363-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 8-iyuldagi PQ–245-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 329-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 8-iyuldagi PQ–245-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi 329-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi 329-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-son qarori bilan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan tijorat banklari ko‘magida mazkur qarorga 1-ilovaga muvofiq tumanlar va shaharlarda zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini joylashtirishni nazarda tutuvchi master-reja loyihalari tayyorlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari:

2024-yil 1-avgustga qadar master-rejalarni hududiy arxitektura va shaharsozlik kengashlari bilan kelishgan holda tasdiqlashni ta‘minlashi;

2024-yil 1-avgustdan boshlab joriy yil yakuniga qadar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda Kadastr agentligi bilan birgalikda master-rejalarga muvofiq zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini tashkil qilish uchun master-reja hududidagi yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rishi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda, zarur hollarda, master-reja hududlaridagi yer uchastkalarining toifasini o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va o‘rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Hukumat komissiyasiga kiritib borishi;

quyidagilar:

Urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, shaharlar va tumanlar markazlarini rivojlantirish hamda aglomeratsiya hududlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tumanlar va shaharlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Aholi va sayyohlar uchun barcha qulayliklarga ega turizm maskanlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tumanlar va shaharlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) bilan hamkorlikda kompleks iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tumanlar ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

ma'lumot uchun qabul qilinganki, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7- maydagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish jarayonlarini va xususiyashtirish dasturi ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 268-son qarori bilan 68 ta tuman va shaharlarda xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari bo'ylab zamonaviy infratuzilmani barpo etish, savdo va servis obyektlarini joylashtirish uchun master-reja asosida auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari rejasi tasdiqlanganligi;

tumanlar va shaharlar bo'yicha ishlab chiqiladigan master- rejalarining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi:

shaharlarda va tuman markazlarida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan aholi ehtiyojidan kelib chiqib ko'p qavatli va yakka tartibdagi uy-joylar majmualarini tashkil qilishi;

aholi gavjum bo'lgan shahar hududlaridan oqib o'tuvchi suv bo'ylarini obodonlashtirish, piyodalar va velosiped yo'laklarini qurish, ular atrofida yengil konstruksiyali ko'chma savdo va servis shoxobchalarini tashkil etishi;

hududlarda aholi, turistlar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratish, jumladan "yashil" hududlarni ko'paytirish, zamonaviy xizmat ko'rsatish va servis obyektlarini, dam olish va ko'ngilochar markazlar, savdo majmualarini tashkil qilish va yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratishi;

bo'sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish, jumladan hududning drayver yo'nalishlarini hisobga olgan holda yer uchastkalarida iqtisodiy samarasi yuqori faoliyat turlarini rivojlantirish, shuningdek, bo'sh yerlarni tayyor lotlarga ajratgan holda tadbirkorlik subyektlariga elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilishi;

hududning infratuzilmaga bo'lgan ehtiyojini baholash, jumladan bo'sh yer uchastkalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari uchun zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilma obyektlari parametrlarini aniqlashi;

aholi va tadbirkorlik subyektlarining takliflari asosida master-rejalarni ishlab chiqish, jumladan investitsiya va infratuzilma loyihalarini tanlab olish va shakllantirishi;

ikki hafta muddatda master-rejalarni ishlab chiqishga qo'yiladigan minimal talablar asosida texnik topshiriqlarni (keyingi o'rinlarda texnik topshiriq) ishlab chiqib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qurilish va uy joy kommunal xo'jaligi vazirligining hududiy bo'linmalari bilan kelishgan holda tasdiqlashi;

bir oy muddatda texnik topshiriq, tashkilot va kompaniyalarga qo'yiladigan minimal talablar asosida belgilangan tartibda master-rejalarni ishlab chiqish uchun tashkilotlarni (keyingi o'rinlarda ishlab chiquvchilar) tanlab, shartnomalar tuzishi;

2024-yil 1-noyabrga qadar master-rejalarni Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining hududiy bo'linmalari bilan kelishgan holda tasdiqlashni ta'minlashi;

bunda:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi master-reja hududidagi bo'sh yer uchastkalarini master-rejalar tasdiqlangunga qadar auksion savdolariga chiqarماسlik choralari ko'rishi;

b) Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

ikki hafta muddatda master-rejalarni ishlab chiqish bo'yicha texnik topshiriq va ishlab chiquvchilarga qo'yiladigan minimal talablarni ishlab chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklariga taqdim qilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari talabnomalari asosida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan 30 mlrd so'mgacha budjet ssudasini ajratishi;

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan (keyingi o'rinlarda GIZ) jalb etilgan grantlar doirasida 10 ta tumanda master-rejalarni ishlab chiqishga GIZ tomonidan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti jalb etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

Institut 2024-yil 1-dekabrda qadar mazkur qarorga 4-ildagi 5 ta va 2025-yil 1-avgustga qadar qolgan 5 ta tumanlar bo'yicha master-rejalarni ishlab chiqishni ta'minlashi;

Loyiha ofislari Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda viloyatlar iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari tashkiliy tuzilmasidan 13 ta hamda G'aznachilik xizmati qo'mitasi hududiy bo'limlaridan 37 ta mavjud shtat birliklarini qisqartirish hisobiga shakllantirilsin va ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi:

tuman va shaharlar hokimliklari bilan hamkorlikda tuman va shaharlarda master-reja hududlarini aniqlash, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ushbu hududlar chegaralarini belgilash va uning tasdiqlanishini ta'minlash;

master-rejalarni ishlab chiqishda buyurtmachilar bilan yaqindan ishlab, ularga texnik topshiriqlarni tayyorlash, master-rejalarni ishlab chiqishga jalb etiladigan tashkilotlarni aniqlashga ko'maklashishi;

master-rejalarga muvofiq yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarishni va tashabbuskorlarni jalb qilishni tashkil qilishi;

master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish, amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har oyda tegishli hududiy komissiyaga kiritib borishi;

bunda Loyiha ofislari rahbari maqomi va mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining kotibiyati mudiriga tenglashtirilishi hamda Loyiha ofislari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, ular tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni har oyda monitoring va muhokama qilish ishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining hamda viloyatlar hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarlari shaxsan mas'ul ekanligi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

Shahar va tumanlarda zamonaviy xizmat ko'rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko'ngilochar markazlarini joylashtirishni nazarda tutuvchi master-reja loyihalari tayyorlanganligi;

Bunda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (E.Qosimov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (B.Pazilov), Davlat atktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev), Namangan shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda:

2024-yil 1-avgustga qadar master-rejalarni hududiy arxitektura va shaharsozlik kengashlari bilan kelishgan holda tasdiqlashni ta'minlashi;

2024-yil 1-avgustdan boshlab joriy yil yakuniga qadar master-rejalarga muvofiq zamonaviy xizmat ko'rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko'ngilochar markazlarini tashkil qilish uchun master reja hududidagi yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish choralarini ko'rish;

Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari A.Xakimov Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (A.Abdusalomov), "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti "Namvilyerloyiha" bo'linmasi (T.Shermatov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (B.Pazilov) bilan birgalikda, zarur hollarda, belgilangan tartibda master-reja hududlaridagi yer uchastkalarining toifasini o'zgartirish bo'yicha Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va o'rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o'zgartirish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha Hukumat komissiyasiga takliflarni kiritib borishi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (E.Qosimov), Soliq boshqarmasi (Sh.Imomov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (B.Pazilov), To'raqo'rg'on tumani hokimligi (A.Mansurov), Chortoq tumani hokimligi (I.Sattarov), Chust tumani hokimligi (B.Salimjanov) bilan birgalikda "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari buyurtmachiligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-son qarorining 3-bandida keltirilgan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, keyinchalik "K-SAVDO" va "E-AUKSION" tizimlarida tadbirkorlik va shaharsozlik maqsadlarida realizatsiya qilish uchun maydonining kamida 60 foizi bo'sh yer uchastkalaridan iborat bo'lgan (renovatsiya hududlari bundan mustasno) hududlarni tanlab, ularning ro'yxatini tasdiqlashi;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (E.Qosimov), To‘rao‘rg‘on tumani hokimligi (A.Mansurov), Chortoq tumani hokimligi (I.Sattarov), Chust tumani hokimligi (B.Salimjanov) “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyalari buyurtmachiligida:

bir hafta muddatda master-rejalarni ishlab chiqishga qo‘yiladigan minimal talablar asosida texnik topshiriqlarni (keyingi o‘rinlarda – texnik topshiriq) ishlab chiqib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi vazirligining hududiy bo‘linmalari bilan kelishgan holda tasdiqlashi;

uch hafta muddatda texnik topshiriq, tashkilot va kompaniyalarga qo‘yiladigan minimal talablar asosida belgilangan tartibda master-rejalarni ishlab chiqish uchun tashkilotlarni (keyingi o‘rinlarda - ishlab chiquvchilar) tanlab, shartnomalar tuzish choralarini ko‘rishi;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (E.Qosimov) 2024-yilda 1-noyabrga qadar qadar master-rejalarni kelishgan holda tasdiqlashni ta‘minlashi;

Bunda:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi (B.Mamtusayev) master-reja hududidagi bo‘sh yer uchastkalarini master-rejalar tasdiqlangunga qadar auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rishi;

mazkur To‘rao‘rg‘on, Chortoq hamda Chust tumanlari bo‘yicha ishlab chiqiladigan master-rejalarni moliyalashtirish manbai etib viloyat mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari va O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan budjet ssudasi belgilanishi;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) master rejalar yakuni bo‘yicha talab etiladigan mablag‘larga aniqlik kiritilganidan so‘ng talabnomalar asosida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan budjet ssudasini ajratish bo‘yicha viloyat hokimligiga taklif kiritishi;

bunda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (B.Mamtusayev) bilan birgalikda budjet ssudalarini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini auksion savdolarida realizatsiya qilishdan tushgan tushumlarning tegishli mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan qismi va boshqa manbalar hisobidan belgilangan muddatlarda qaytarishni ta‘minlashi;

viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov master-rejalarning o‘z vaqtida ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi uchun mas‘ul etib belgilanganligi;

Viloyat hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Nuritdinov, Turizm boshqarmasi (O.Rasulov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (E.Qosimov), Kosonsoy tumani hokimligi (D.Qodirov), Chust tumani hokimligi (B.Salimjanov), Chortoq tumani hokimligi (I.Sattarov), Pop tumani hokimligi (A.Sultanov) hamda Yangiqo‘rg‘on tumani hokimligi (A.Najmiddinov) bilan birgalikda bir hafta muddatda turizm salohiyati yuqori hududlarni belgilashi;

ikki oy muddatda ularda turizm maskanlarini tashkil etish bo‘yicha master rejalarini ishlab chiqish maqsadida ishlab chiquvchilar bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzib 2024-yil 1-noyabrga qadar master-rejalarni ishlab chiqishni yakunlash choralarini ko‘rishi;

bunda:

master-rejalarni ishlab chiqish bo‘yicha Turizm qo‘mitasi buyurtmachi etib belgilanganligi;

xarajatlarni moliyalashtirish Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi e‘tiborga olinishi;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (B.Pazilov), Turizm boshqarmasi (O.Rasulov) bilan birgalikda 2024-yilda master-rejalarni ishlab chiqish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar reja grafiklarini tasdiqlashi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (E.Qosimov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev) hamda Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (B.Pazilov) master-rejalar hududlaridagi bo‘sh yer uchastkalarini master-rejalarda belgilangan obyektlarni tashkil etish sharti bilan auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rib borishi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Rasulov), Turizm boshqarmasi (O.Rasulov) hamda Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (O.Akbarov) master-rejalarni amalga oshirish, jumladan master-reja asosida auksion savdolariga chiqariladigan bo'sh yer uchastkalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalariga tashabbuskorlarni jalb qilish choralarini ko'rish;

Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Abduhamidov, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), G'aznachilik xizmati hududiy boshqarmasi (A.To'rayev) bilan birgalikda viloyat hokimligining tashkiliy tuzilmasida hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari bo'ysunuvida hududlarning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda masterrejalari soni va ko'lamidan kelib chiqib, 3–5 tagacha shtat birligidan iborat Master rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha Loyiha ofisini tashkil etish yuzasidan viloyat hokimiga taklif kiritilishi;

Bunda, Loyiha ofisi viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tashkiliy tuzilmasidan hamda G'aznachilik xizmati viloyat hududiy bo'limidan mavjud shtat birliklarini qisqartirish hisobiga shakllantirilishi inobatga olinishi;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), Turizm boshqarmasi (O.Rasulov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev) Loyiha ofislari bilan birgalikda tegishli yo'nalishlar bo'yicha master rejalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha ishlarni har oyda muhokama qilib, viloyat hokimligiga takliflar kiritib borishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ–245-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, master-rejalarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishni tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy komissiya tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlangankigima'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari hamda tuman hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari belgilansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimdamda qoldiraman.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov